

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJODIY TASAVVURLARINI RIVOJLANTIRISHDA ONA TILI DARSLARINING AHAMIYATI

Normurodova Nigora

Nizomiy nomidagi O'zMPU Boshlang'ich va maktabgacha
ta'lim fakulteti (PhD) o'qituvchisi

Abdug'aniyeva Nigora

Nizomiy nomidagi O'zMPU Boshlang'ich va maktabgacha
ta'lim fakulteti 4-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19733303>

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tasavvurlarini rivojlantirishda ona tili darslarini ahamiyati, darsda ijodiy tasavvurlarni kengaytirish borasidagi bilimlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ona tili darslari, rivojlantirish, ijodiy tasavvur, o'quvchilar, usullar, o'yinlar, metodik tavsiyalar.

THE IMPORTANCE OF NATIVE LANGUAGE LESSONS IN DEVELOPING THE CREATIVE IMAGINATION OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Annotation: This article highlights the importance of native language lessons in developing the creative imagination of primary school students, as well as provides insights into expanding creative thinking during the lesson process.

Key words: native language lessons, development, creative imagination, students, methods, games, methodological recommendations.

ЗНАЧЕНИЕ УРОКОВ РОДНОГО ЯЗЫКА В РАЗВИТИИ ТВОРЧЕСКОГО ВООБРАЖЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация: В данной статье раскрывается значение уроков родного языка в развитии творческого воображения учащихся начальных классов, а также освещаются знания по расширению творческого мышления в процессе урока.

Ключевые слова: уроки родного языка, развитие, творческое воображение, учащиеся, методы, игры, методические рекомендации.

Ta'lim tizimida o'qituvchilar tomonidan noan'anaviy ta'lim metodlari joriy etilib, o'qitishning zamonaviy shakllari va metodlari keng qo'llanilmoqda. Zamonaviy metod va usullarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. An'anaviy o'qitish jarayonida asosan o'qituvchi darsni olib borsa, noan'anaviy o'qitish jarayonida esa o'quvchi shaxsiga erkinlik berish, munosabatlarni demokratlashtirish asosida dars jarayonlari tashkil etiladi. Bunda ta'lim jarayonida o'yinlardan foydalanish ham muhim o'rin tutadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tasavvurlarini rivojlantirishda ona tili darslari poydevor vazifasini o'taydi. Ona tili nafaqat grammatik qoidalar majmui, balki o'quvchining tafakkuri, his-tuyg'ulari va dunyoqarashini ifoda etuvchi asosiy vositadir. Bu darslar davomida bolalarda mustaqil fikrlash, original g'oyalar yaratish va nutqiy faollik shakllanadi.

Didaktik o'yinli texnologiyalar va ijodiy topshiriqlar o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan bo'ladi. Ular o'qitish sifatini oshirish va o'quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o'lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa

chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilganligi bilan xarakterlanadi. Bugungi kunda didaktik o'yinlarning asosiy turlari: intellektual (aqliy), harakatli va aralash o'yin turlari amaliyotga tadbiiq etilgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tasavvurini rivojlantirishda ona tili darslari juda muhim o'rin tutadi. Chunki ona tili faqat o'qish va yozishni o'rgatadigan fan emas, balki bolalarning fikrlash doirasini kengaytiradigan, nutqini boyitadigan va ijodiy fikrlashga undaydigan asosiy vositadir.

Ona tili darslari orqali o'quvchilar so'z boyligini oshiradi, gap tuzish qoidalarini o'zlashtiradi va o'z fikrini erkin ifoda etishni o'rganadi. Bu jarayon bevosita ijodiy tasavvurning shakllanishiga ta'sir qiladi. Chunki ijodiy tasavvur — bu o'quvchining mavjud bilimlardan foydalanib, yangi g'oyalar yaratishi, voqealarni o'zicha tasavvur qilishi va turli holatlarni fikran tasvirlay olish qobiliyatidir.

Dars jarayonida matnlar bilan ishlash, hikoya tuzish, rasm asosida gapirish, ertaklarni davom ettirish kabi topshiriqlar o'quvchilarda tasavvur qilish, solishtirish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, erkin ijodiy yozuvlar bolalarda mustaqil fikrlashni shakllantiradi va ularni ijodiy yondashuvga o'rgatadi.

Shuningdek, ona tili darslarida qo'llaniladigan o'yinli metodlar, muammoli vaziyatlar va savol-javob usullari o'quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi. Bu esa ularning faolligini kuchaytirib, ijodiy fikrlash jarayonini yanada jadallashtiradi. O'qituvchi tomonidan to'g'ri tanlangan metod va usullar o'quvchilarning tasavvurini kengaytiradi, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatadi hamda o'z fikrini erkin bayon etishiga yordam beradi. Natijada, ona tili darslari nafaqat bilim berish, balki ijodkor shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

O'quvchilarda ijodkorlikni rivojlanishi mavjud stereotiplarga qaram bo'lib qolmaslik bilan aloqadordir. Ayrim vaziyatlarda ta'lim jarayoni o'quvchilar ijodkorligini yo'qotishga sabab bo'ladi. Sababi, ta'limda deyarli hamma narsa qolipga solingan. Boshlang'ich sinfda harflarni ikki chiziq orasiga sig'dirish zarurligini, ustoz o'rgatgandan boshqa ko'rinishda yozsa jazolanishi uqtirilgan boladan maktabni tamomlayotganda biror mavzuda insho yozish so'ralsa, undan "namuna bormi?" degan savol chiqishi, tabiiy. Sababi, ijodkorlik erkinlikni talab qiladi. Ijodkor insonlar bir qolipga sig'maydi. Kimyo fani darg'alaridan bo'lmish Mendeleev maktab chog'larida kimyo o'qituvchisidan ikki baho olgani bir qarashda kulguli tuyiladi.

Bilishga qaratilgan topshiriqlar orqali o'quvchilarni mantiqiy va mustaqil fikr yuritishga, izlanishga, muammolarni hal qilish yo'llarini topishga o'rgatib boriladi. O'qitishning zamonaviy texnologiyalar va topshiriqlarni ona tili darslarining barcha mavzularida foydalanish orqali o'quvchilarning darsga qiziqishlarini orttirish ko'zlangan. Darslarida ilg'or usullardan foydalanish o'quvchilarning ta'lim-tarbiyaga oid bilim ko'nikma va malakalarni, og'zaki va yozma nutqini o'stirishgina emas, balki, ma'naviyatini ham shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

"Faqat shu harfga so'z" metodi orqali o'quvchilar o'tilgan mavzu sarlavhasiga yoki shu mavzudagi qahramonning nomiga ketgan harf asosida topshiriq berish mumkin. M: "Do'stlar" mavzusidagi - d harfiga deydik, o'quvchilar quyidagicha tuzish mumkin Daryo, dongdor, diyor. na tili darsida esa o'quvchilar o'tilgan qoidani bosh harfini aniqlab shu harfga oid so'z aytish vazifasi beriladi. Masalan; mavzu "Fe'l" bo'lsin, o'quvchilar - f harfiga quyidagi fayz, fil, farmon, farishta, favvora so'zlarini aytishi mumkin.

Xulosa qilib aytsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tasavvurini rivojlantirishda ona tili darslari alohida ahamiyatga ega. Ushbu darslar orqali o'quvchilar nafaqat savodxonlikni

egallaydi, balki fikrlash, tasavvur qilish va ijodiy yondashish ko'nikmalarini ham shakllantiradi. Turli metodlar, topshiriqlar va o'yinlar yordamida o'quvchilarning nutqi boyiydi, mustaqil fikrlashi rivojlanadi va ijodiy faolligi ortadi. Shuning uchun ona tili darslarini samarali tashkil etish ta'lim jarayonida ijodkor shaxsni tarbiyalashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. G.Ernazarov. Ona tili o'qitish metoikasi. -Toshkent, 2017 yil
2. "Pedagogika". Toshkent, "O'qituvchi", 2013 yil 3. "Ona tili" kitobi, 1-4--sinf, Toshkent, 2017 yil.
3. Boshlang'ich ta'lim metodikasi bo'yicha o'quv qo'llanmalar, 2020-yil.
4. Ona tili o'qitish metodikasi darsliklari, 2019-yil.
5. Pedagogika va psixologiya asoslari bo'yicha o'quv adabiyotlari, 2021-yil
6. <https://inlibrary.uz/index.php/universaljurnal/article/view/74644>